

## “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA ZID XARAKTERLAR TASVIRI

Mohigul MAVLONOVA,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677014>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlangan salbiy qahramonlar adabiy-ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jumladan, Xusrav, Sheruya hamda Buzurg Ummid obrazlarining voqealar rivojidadagi o‘rni, ularning badiiy-estetik vazifalari va xarakter xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, asarda tasavvufiy hamda irfoniy mazmun kasb etgan muhabbat tushunchasining manfaatparast va razil kimsalar tafakkurida qay tarzda buzilgan holda namoyon bo‘lishi ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** doston, Xusrav, Sheruya, Buzurg Ummid, maktub, muhabbat.

**Аннотация.** В данной статье с литературоведческой и научной точки зрения анализируются отрицательные персонажи поэмы Алишера Навои «Фархад и Ширин». В частности, рассматриваются место и значение образов Хосрова, Ширюя и Бузурга Умид в развитии сюжета, а также их художественно-эстетические функции и характерные особенности. Кроме того, раскрывается, каким образом понятие любви, обладающее глубоким суфийским и ирфанским содержанием, искажается в мировоззрении корыстных и безнравственных людей.

**Ключевые слова:** поэма, Хосров, Ширюя, Бузург Умид, письмо, любовь.

**Abstract.** This article presents a literary and scholarly analysis of the negative characters depicted in Alisher Navoi’s epic poem Farhod and Shirin. In particular, it examines the role of Khusraw, Shiruya, and Buzurg Ummid in the development of the plot, highlighting their artistic functions and distinctive character traits. The study also explores how the concept of love, enriched with profound mystical and Sufi meanings, becomes distorted in the worldview of selfish and immoral individuals.

**Keywords:** epic poem, Khusraw, Shiruya, Buzurg Ummid, letter, love, death.

“Farhod va Shirin” dostonida voqealar rivoji nafaqat ezgulik va pok muhabbat timsollari, balki zulm, hasad, xudbinlik va siyosiy makkorlikni o‘zida mujassam etgan salbiy qahramonlar orqali ham chuqur ochib beriladi. Asarda Xusrav, Buzurg Ummid singari obrazlar insoniy fazilatlarining yemirilishi, hokimiyat va nafsi yo‘lida har qanday qabihlikka tayyor kimsalarning timsoli sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, muhabbat, sadoqat va haqiqat qarshisida ularning ichki tubanligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan dostonidagi salbiy qahramonlar nafaqat syujet harakatini kuchaytiradi, balki muallifning adolat, ma’naviyat va komil inson haqidagi falsafiy qarashlarini ochishda ham muhim badiiy vazifa bajaradi. Dostonda Farhod va Shirinning bir-biriga yozgan maktublari ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu maktublar hijron gulxanida yongan ikki sevishtan qalbni bir-biriga bog‘laydigan, sevgi va

sadoqat mujdasini tashuvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday pok tuyg‘ular ifodasi bo‘lgan muhabbat madhiyasining zolim Xusrav qo‘liga tushishi asar syujetida burilish yasaydi. Xatning mazmuni bilan tanishish jarayonida Shirinning Farhodga sadoqati, ularning samimiy va sof muhabbatini idrok qilgani sari Xusravning iztirobi ortadi. Shiringa ega bo‘lish uchun eng asosiy to‘siq – nur kabi pokiza va begunoh Farhod ekanini anglagan podshoh maqsadiga erishish yo‘lida har qanday tubanlikka qodir shaxs sifatida taassurot uyg‘otadi. Buning uchun u turli murakkab vaziyatlarga ham chora topa oladigan hammaslagi, vafodor, ammo ikkiyuzlamachi vaziri Buzurg Ummidni yashirincha yoniga chorlab, undan maslahat so‘raydi. Shopur zindonband qilinadi. Shoir dostonning IX bobida Buzurg Ummidni quyidagicha baholaydi:

Buzurg Ummid hikmatjo‘yi oning,  
Ne hikmatjo‘, xushomadgo‘yi oning.

Buzurg Ummid shaxsiyatini fosh qiluvchi baytda vazirning hikmat va aqlni emas, balki shohga xushomad qilish va uning istaklarini to‘g‘ri-noto‘g‘riligidan qat’i nazar, so‘zsiz bajarishni birlamchi vazifa deb tushinishi tanqid qilinadi. Shu sababdan bu obraz dostonda aql va adolatning emas, balki johillik va siyosiy makkorlikning timsoli sifatida gavdalanadi. Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida zolim podshohlar haqida gapira turib: “Bu yomon podshohki, bo‘lg‘ay vaziri ham yomon, andoqki, Fir‘avn nayobatida Homon”. “Vuzaro zikrida”deb nomlangan beshinchi faslida esa vazir so‘zining “vizir” (gunoh) so‘zidan olingani to‘g‘risida yozadi. Bu zolimlar mamlakatni barbod qiluvchi, xalqning yig‘gan-terganini yo‘qotguvchilardir. [1.456-457.] Ularning yuzlari qoraligidan hattoki ular to‘g‘risida yozishga qora qalam ham uyaladi. Bu hol aynan Buzurg Ummid tabiati va shaxsiyatiga juda mos va loyiqdir. Agar aql egasi aqlini, ilm egasi ilmini yaxshilik va ezgulik tomon yo‘naltirmas ekan, bundan faqat begunohlar aziyat chekadi. Aqlning mana shu ko‘rinishi shoh Xusrav va uning vaziri Buzurg Ummid foydasiga hizmat qiladi. Vazir podshohni tinchlantirib, uzoq fikr-u mulohazalardan keyin yana “hiylayi shum” yo‘lini tutadi. Bu ishga osmon makkorasi uni xola deb, makr va firibda mashhur bo‘lgan Dallat ul-muhtola esa uni ona deb chaqiradigan bir hiylagar kampir jalb etiladi. U Shirinning o‘limi haqidagi shumxabarni firoqdan qaddi dol bo‘lgan bechora Farhodga yetkazadi.

O‘ziga qatl tig‘in urdi filhol,  
O‘zin bu g‘ussadin o‘lturdi filhol.

Bu misralar orqali shoir ishq mazmunidan bexabar shoh va uning atrofidagi munofiq kimsalarning har qanday pastkash vositalarni ham qo‘llashini fosh qiladi.



Aslida, bu harakatlar bilan zolimlar o‘zlariga choh qazyidilar. Jaloliddin Rumi tomonidan aytilgan mashhur hikmatlardan biri mazkur holatga muvofiq keladi: “Zolimlar zulmi qorong‘u quduq kabidir, barcha olimlar shunday dedilar: “Ey zulm bilan quduq qazigan! Sen o‘zingga tuzoq tayyorlayapsan”. [2. 48.] Johil bunday jaholat bilan faqat o‘z baxtsizligining poydevorini mustahkamlaydi. Bu poydevor esa zulm, zo‘rluk, xiyonat, tuhmat, ig‘vo, kibr suviga qorilgan edi.

Shirin sihatining sog‘ayishi uchun tog‘ havosi zarurligi va buning uchun Farhod qurgan qasrga borishga izn so‘rash orqali Xusravga rozilik bildirishadi. Bu javobdan xursand bo‘lgan shoh ularning talabini qabul qiladi. Shirinning bu tashrifi butun mamlakatda katta voqea sifatida qabul qilinadi. Ular orasida Xusravning Maryam ismli xotinidan tug‘ilgan o‘g‘li Sheruya ham bor edi. Podshohning adolatsizligi va zulmidan to‘ygan xalq, a‘yonlar Sheruya tarafida birlashadi va shahzoda otasini o‘z nafsi yo‘lida qurbon qiladi.

Shu o‘rinda Xusravga qarama-qarshi qo‘yilgan xoqon obrazining e‘tiborli jihatlari yodga tushadi. Doston kompozitsiyasida qahramonlar xarakterlarining ziddiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi: Xoqon va Xusrav, Farhod va Sheruya, Mulkoro va Buzurg Ummid. Xoqonning o‘g‘liga bo‘lgan mehri, muhabbati – o‘zgacha. U butun qalb qo‘ri, yuragidagi bor mehri bilan uni tarbiyalaydi. Shahzoda atrofida gilarining qaynoq muhabbat taftini, samimiyatini his qilib ulg‘aydi. Navoiy xoqon obrazini Xusrav kabi tuban hukmdorlardan ustun turgan podshoh sifatida tasvirlaydi. U o‘z sevgisini nafaqat farzandiga, balki qo‘l ostidagi a‘yonlariga ham, fuqarolariga ham birday bag‘ishlaydi. Merosxo‘r so‘rab, Tangriga qilgan iltijolari davomida otasizlarning boshini siladi, o‘g‘ilsizlarga hamdard bo‘ldi. Farhod tug‘ilgach, xalqiga juda ko‘p yengilliklar joriy qildi. Shuning uchun xoqon tasviri aks etgan barcha o‘rinlarda – qayg‘uda ham, shodlikda ham vaziri Mulkoro va butun sipohi bilan birdamlikni saqlab qolgani ko‘rinadi. Xusrav esa o‘g‘liga hech qanday muhabbatsiz, hatto unga nisbatan nafrat tuyg‘usi bilan munosabatda bo‘ladi. Shu singari Sheruya ham otasiga mehr rishtalari orqali bog‘lanmagan. Xusrav Buzurg Ummid bilan bo‘lgan suhbatda taxt uchun noloyiq, noqobil o‘g‘ildan shikoyat qiladi, o‘ziga munosib merosxo‘r istab, Shiringa uylanmoqchi bo‘ladi. Haroratsiz, sovuq munosabatlar bilan ulg‘aygan Sheruya padarini hech ikkilanmay yo‘lidan olib tashlashga urinadi va buni uddalaydi. Zero, bu foje qismatdan zolim qochib yoki qutulib ketmog‘i dushvor. Bu holat Xusravning nafaqat shoh sifatidagi, balki odamiylik qadriyatlarida ham tanazzulga uchraganini ko‘rsatadi. Ya‘ni shoir Sheruyani ajalga qiyoslaydi. Aslida, Xusrav fojiasi tasodifiy bo‘lmay, Yaratganning irodasi bilan qilgan barcha jinoyatlari uchun yuborilgan jazodir. Baytda ifodalangan ramziy ma‘no esa “ajal”ning Sheruya



qilichi tarzida kelishidir. U farzandiga otalardek mehr va muhabbat ko‘rsatmaganligi oqibatida o‘z hayoti uchun ajal vositasini tarbiyalagan. Qo‘li ota qoni bilan belangan shahzoda malikaga sovchi jo‘natadi. Chorasiz qolgan Shirin uzoq o‘ylab “hiylayi tadbir” bilan vaqtdan yutish maqsadida bir nechta shartlar qo‘yadi. Shopurni zindondan ozod qilishni, Farhodning jasadini saroyga olib kelib uni munosib dafn etish uchun ruxsat berishni so‘raydi. Shirin Sheruyaga zinhor rozilik javobini berishni niyat qilmaydi. U vafo qonunlariga aslo xiyonat qilmoqchi emas. Shu o‘rinda aytish joizki, Navoiy Shirin obrazi orqali ayol mehri, sadoqati, ma’naviy yuksakligi va mustahkam irodasiga alohida urg‘u beradi. Shirin shaxsiyatidagi qat’iyatlilik va ishqqa vafo inson kamolotining eng ulviy ko‘rinishi tarzida aks etadi. Faqat u taqdir yordam qo‘lini cho‘zishiga umid bog‘laydi. Chunki o‘z nafsini yo‘lida otasini ham ayamagan padarkush o‘g‘il har qanday tubanlikka, johilikka qo‘l urishi mumkin edi. Zero, Sheruya Shirinning rad javobi berish ehtimoli borligini bilib, uni do‘q-po‘pisa bilan ogohlantirgan ham edi:

Ibo qilmoqlig‘ing ham gar bilurman,

Yaqin bil, ne qila olsam qilurman.

Sheruyaning bu tahdidi nafaqat ogohlantirish, balki Shirinni o‘ziga itoatli bo‘lishga zo‘rlash sifatida baholanib, uning xarakteridagi zulm va tajovuzga moyillik nishonalarini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur lavhalar “Farhod va Shirin” dostonidagi ma’naviy va axloqiy ziddiyatlarning eng yuqori ko‘rinishlaridan birini tashkil etadi. Shirin sadoqat, vafo va poklikning ramzini ifodalaydi. Sheruya, Xusrav, Buzurg Ummidlar esa nafs, yovuzlik va johillik timsoliga aylanadi. Shoir bu illatlar insonni halokatga eltuvchi yo‘l ekanligini badiiy yo‘sinda namoyon etadi.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Навоий А. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 456-457.
2. Румий Ж. Қалб кўзингни оч. – Тошкент: Санно-стандарт, 2010. – Б.48.
3. Навоий А. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги НМИУ, 2011.